



QORAQALPOQSTON TURKMANLARINING POEZIYASI

Pirmatova Nurshot Reyimberdievna¹

¹ Qoraqalpoq davlat universiteti 1 -kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815133>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-dekabr 2021
Ma'qullandi: 25- dekabr 2021
Chop etildi: 30- dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Turkman xalqi
o'zbeklari, milliy
adabiyoti, ertak, doston, Ah
mad Yassaviy, Andalib

ANNOTATSIYA

Siz maqolada qoraqalpoq turkmanlarining poeziyasi bilan tanishasiz. Dostonlari adabiyotlari yozma adabiyot manbalari haqida malumot olasiz.

Turkman xalqi o'zbeklar singari asrlar davomida chet el bosqinchilari zulmiga qaramay, o'z milliy tilining sofliqini saqlab qoldi, milliy adabiyoti va madaniyatini taraqqiy ettirish uchun kurash olib bordi.

Zahmadkash xalqning orzu-umidlarini kuylovchi ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar qatorida turkman xalq latifalarida dono va tadbirkor Kaminaning obrazi yaratilganki, u o'zining ko'p xususiyatlari bilan o'zbek xalq latifalaridagi Afandi obraziga juda yaqin.

Manbalarda yozma adabiyot Turkmanistonda taxminan XI–XII asrlarda, dastlab Ahmad Yassaviy va Ali singari diniy motivlarni tarannum qilgan shoirlarning ijodi ta'siri ostida turkiy (chig'atoy) tilida yuzaga kelgani qayd etiladi.

XIV asrda yashab ijod etgan Burhoniddin Sivosiy va Sayid Imoniddin Nasimiy turkman yozma adabiyotining

taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Turkman adabiyoti tarixini o'rganishda ularning ijodi salmoqli o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, Xorazmda tug'ilib, hayotini Kichik Osiyo shaharlarida o'tkazgan Sivosiy o'z she'rlarini birinchi bo'lib turkman tilida yozgan.

XVIII acp turkman adabiyotining yirik vakillari Andalib, Ozodiy, Ma'rufiy, G'oyibiy, Shaydoiy, Shobanda o'z ijodlarida fors-tojik, ozarbayjon va o'zbek adabiyotlarining eng yaxshi an'alarini davom ettirdilar. Shoir Shobandaning "Shoh Bahrom", "Gulu Bulbul", "Xo'jamberdi" dostonlari va ko'plab lirik she'rlari, Ma'rufiyning "Sayfulmuluk Midhal Jamol", "Yusuf va Ahmad", "Davlat Er" dostonlari, Shaydoiyning "Qissai Sanavbar" dostoni omma orasida juda mashhur.

Andalib taxallusi bilan ijod qilgan Nurmuhhammad G'arib XVIII asr turkman



adabiyoti tarixida o'zining lirik g'azallari hamda "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", "Zaynularab" kabi asarlari bilan sezilarli iz qoldirgan shoirdir. U asli koramozilik (hozirgi Turkmaniston Respublikasi, Ilonli tumanining Karamozi qishlog'i) bo'lib, bir qancha vaqt Xorazm (Urganch)da yashagan.

Xorazmda "Go'ro'g'li", "Shohsanam va G'arib", "Tohir va Zuhra", "Huriliqo va Hamro", "Sayotxon va Hamro" kabi dostonlar oqin-baxshilar tomonidan tinglovchilarning talabiga qarab goh o'zbek, goh turkman tilida kuylangan. Bu esa har ikki xalq shoirlari, oqin-baxshilari ijodiy hamkorligining tez rivojlanishiga sabab bo'lgan. Andalib mana shu adabiy muhitda qalam tebratganligi sababli uning asarlari, shubhasiz, ikkala xalqqa ham tushunarlidir. Turkmaniston Fanlar akademiyasining akademigi B.Karriyev shoir Andalib aksar asarlarini ("O'g'uznoma", "Nasimi", "Sa'di Vaqqos", "Yusuf va Zulayho" va boshqalar) o'zbek va turkmanlarga bir xilda tushunarli tilda yaratilganini ta'kidlagan.

Turkman mumtoz adabiyotining asoschisi, shubhasiz, Maxtumlidir. Turkman xalqi tarixining eng notinch va og'ir davrida yashab o'tganiga qaramay Maxtumlili serqirra ijod qildi. Uning asarlari ko'plab chashmalardan suv ichgan. Qur'oni karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so'z san'ati va xalq og'zaki ijodi shular sirasidan. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, so'fiyona ruhni ham, xalqona ohanglarni ham, mumtoz adabiyot ta'sirini ham ko'ramiz. Ana shu jihatlar shoir asarlarining umrboqiyiligini ta'minlagan.

Turkman xalqining tarixi, buguni va ertasi, urf-odatlar, an'analar, davrining muhim siyosiy-ijtimoiy hodisalari, shoirning dardu hasratlari shoir asarlarining asosiy mavzusi hisoblanadi. She'rlarda shoir o'z xalqini sevgan, uning dardu hasratlari bilan yongan, istiqboli uchun qayg'urgan fidoyi vatanparvar sifatida namoyon bo'ladi. Vatan va xalq mavzui – Maxtumlili she'riyatining o'q ildizini tashkil etadi. Shundan bo'lsa kerak, Maxtumlili o'zbek xalqining o'z shoiriga aylanib ketgan. Uning, xususan, ma'naviy-axloqiy mavzudagi teran pand-nasihatga yo'g'rilgan ma'nodor she'rlari kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Maxtumlili nomini bilmaydigan birorta o'zbek topilmaydi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Maxtumlili she'rlari o'zining xalqchil ruhi tufayli asrlar davomida xalq baxshilari, xalfalari va hofizlari tomonidan kuylanib, shoirlarga ilhom berib kelmoqda, adabiy davralar va she'riyat kechalari, gap-gashtalarda o'qilib kelinadi. O'zbekning biror to'y-tantanasi yo'qki, u Maxtumlili qo'shiqlarisiz o'tsa! Bizgacha Maxtumlilining 700 dan ko'proq she'ri va 10 ga yaqin kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. Adibning asarlari Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmedov, Mirzo Kenjabek tarjimalarida o'zbek tilida bir necha marta chop etilgan, turli majmua va darsliklarga kiritilib, chuqur o'rganib kelinmoqda.

XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida yashab ijod etgan turkman shoirlari Saidiy, Kotibiy, Miskin Qilich va Zeliliy Maxtumlili ijodining davomchilari sanalishadi.

Turkman mumtoz shoirlarining yana bir namoyandasi Mullo Napasdir. Adabiyot tarixida Mullo Napas o'zining bizgacha yetib kelgan ikkita mazmundor dostoni –



“Gelmisham” va “Zo’hro va Tohir” dostonlari bilan mashhur.

Qardosh o‘zbek, tojik va qirg‘iz adabiyotlarida bo‘lgani kabi, turkman adabiyoti taraqqiyotining birinchi davrida ham (1905–1929) poeziya yetakchi janr bo‘lib qoldi. Bu vaqtlarda xalq shoiri Ko‘rmulloning “Bolshevik” dostoni, Durdi Qilichning “Zolimlar”, “Kambag‘allar”, Mullo Murtning “Turkmaniston uchun azizsan”, “Ozodlik” singari she‘riy asarlari davrning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan edi.

XV asrda yashagan Vafoi nomli shoir ham turkman adabiyotida ancha mashhurdir. Chunki u Ahmad Yassaviy an‘analarini davom ettirib, tasavvuf falsafasi

g‘oyalarini she‘r qilib yozar edi. Bu shoir asari tasavvuf lirikasining go‘zal namunasi sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan. XVII asrda yashagan shoir Ozodiy ham o‘z ijodida tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Uning «Va‘zi Ozodiy» she‘rlar to‘plami meros bo‘lib qolgan.

Ozodiy xalqni xonavayron qiluvchi o‘zaro urushlarni qoraladi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, u Gurgon hokimi Alixonga qarshi xalqni qo‘zg‘olonga chaqirgan. Shoir «Ozodiy» taxallusini ham bekorga qabul qilmagan. U erk va ozodlik haqida juda ko‘p qo‘shiq va g‘azallar yozgan. Shoirning «Va‘zi Ozod» nomli dostoniga olti ming misraga yaqin she‘r kiritilgan. Bu kitobdagi asosiy g‘oya ham inson erkiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda didaktik pand-nasihatlar ham ko‘p o‘rin olgan. Dostonning birinchi bobi «Shohlar ta‘rifi» deb yuritiladi. Bunda shoir Navoiy an‘analarini davom ettirib, adolatli hukmdorlar haqida fikr yuritadi.

Bizga ko‘p jihatlari bilan yaqin, tuyg‘udosh bo‘lgan adabiyotlardan biri turkman xalqi yaratgan badiiy ijod namunalaridir. Turkman adabiyoti ham turkiy xalqlar adabiyoti sirasida o‘ziga muayyan o‘rinni egalladilar. Uning ham boshlanishi xalq og‘zaki ijodi-folklor asarlari bilan bevosita aloqadordir, bog‘liqdir. Chunki, turkman yozma adabiyotining barcha vakillari folklordan oziq olganlar.

Turkman klassik adabiyoti dastavval folklor janrlariga juda yaqin turgan poetik namunalar sanaladi.

Turkmanlarda ertak, ashula, doston janrlari qadimdan keng tarqalgan. Ayniqsa, «Go‘ro‘g‘li» tizimiga kiruvchi dostonlarning o‘zi 40 dan ziyod sanaladi. «Go‘ro‘g‘li» tizimida turkmanlar avvalida mashhur o‘ziga xos bir syujetga tayanadilar.

Turkman shoiri Mullo Nafas «Gel» («Kel») radifli g‘azali va muxammasida ramali musammani mahfuzdan chiroyli foydalanadi:

Dilbaro, yoding bilan sinamda g‘am kon o‘ldi, gel,

Hasratingdan buzulib holim parishon o‘ldi, gel...

(- v --- v --- v --- v -

foilatun foilatun foilatun foilun)



XIX asr boshlaridan yangi turkman adabiyoti shakllana boshlagan. Ayniqsa, Miskin Qilich, Bayram shoir, Ko`rmullo, Durdi Qilich va XX asrda nomi turkman adabiyotining faxri bo`lib qolgan Berdi Kerboboyev singari allomalar yetishib chiqdi. B.Kerboboyev XX asr turkman adabiyotida o`ziga yangi bir adabiy maktab yarata oldi. Uning izdoshlari bo`lmish Beki Seytoqov, Omon Kekilov, Ota Solih yangi zamon turkman adabiyotini va uning lirik, epik va dramatik janrlarini keng miqyosda rivojlantirdilar. Bugungi kunda turkman adabiyoti ham tubdan yangilanish, hurfikrlilik va keng demokratik o`zgarishlar uchun kurash jarayonini boshidan kechirdi

Xulosa qilib aytganda, G`ayratiy ta`biri bilan muxtasar aytganda, o`zbek – turkman xalqlarining do`stlik va qardoshlik tarixi

Amuday uzun. Bu qardoshlik ularning adabiyoti va og`zaki ijodiyotida ham chuqur iz qoldirgan. Go`ro`g`li bir qancha turkman xalq eposlarining bosh qahramoni bo`lganiday, qirqdan ortiq o`zbek xalq dostonlari ham uning mardlik, olijanoblik xislatlarini tasvirlashga bag`ishlangan. Tohir va Zuhra, Oshiq va G`arib singari pok sevgi timsollari har ikki xalqda ham zo`r muhabbat va samimiyat bilan ulug`lanadi. Zero, o`zbek va turkmanning tili, urf-odatlarini, madaniyati uyg`un, adabiyoti va san`ati umumiydir. Turkiy g`azalnavislikda aruzning ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlari ko`proq mavjud bo`lganligi, o`zbek mumtoz nazmida esa Taroziy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar ko`rsatib o`tganidek, aruzning bir necha o`nlab xilmal bahrlarida go`zal g`azaliyot bunyod etilganligini e`tirof etish o`rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M.Davronova "Turkman adabiyoti.Folklor va yozma adabiyoti"
2. Quronboyev K. "Turkmenskaya literatura."1972.
3. <http://www.samdu.uz/>